



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 10-dekabr

694-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 3-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uy-joy mulkdorlari shirkatini tugatishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilishi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining "Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarni tashkil etish va tugatishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 28-sentabrda 542-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" 2024-yil 21-noyabrda 778-son qarori ijrosi to'g'risida"gi 580-6-0-Q/24-son qarori haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ko'p kvartirali uylarni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 15-avgustda 278-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uy-joy mulkdorlari shirkatini tugatishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilishi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining "Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarni tashkil etish va tugatishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 28-sentabrda 542-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" 2024-yil 21-noyabrda 778-son hamda shu mazmundagi viloyat hokimining 2024-yil 3-dekabrda 580-6-0-Q/24-son qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

- Namangan viloyati hokimining 2024-yil 3-dekabrda 580-6-0-Q/24-son qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-noyabrda 778-son qarori bilan: Vazirlar Mahkamasining "Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarni tashkil etish va tugatishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 28-sentabrda 542-son qaroriga ilovaga muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi: moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan uy-joy mulkdorlari shirkatlarini aniqlashi; soliq xizmati organlari, tijorat banklari hamda Davlat xizmatlari markazlarining uy-joy mulkdorlar shirkatini harakatsiz holatga o'tkazish hamda davlat reyestridan chiqarishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
- Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimning moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov va tuman hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari H.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov